

## YAQIN SHARQ MINTAQASIDA MIGRATSIYA MUAMMOSI

*Ramazon Ziyozulov Shuxrat o'g'li*

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,  
"Xalqaro istisodiyot va menejment"  
fakulteti 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola 2018-2023 yillar oralig'ida Yaqin Sharq Mintaqasida, xususan, Falastin, Suriya, Isroil va Livan davlatlarida yuzaga kelgan migratsiya muommolarining kelib chiqish sabablarini, dunyo mamlakatlarining ushbu migratsiyaga nisbatan o'z pozitsiyalarini, migratsiyaning boshqa davlatlarga nisbatan ta'sir ko'rsatishini, Yevropa Ittifoqining ushbu davlat insonlariga ko'rsatayotgan yordamlari va migratsiyaga qarshi qo'llayotgan choralarini, yechim bo'la oladigan muhim chora va yo'llarini o'rganib va tahlil qilib chiqadi. Hamda migratsiya tufayli odamlarning hayoti qanday kechishi va odamlar hayotiga ta'siri izohlaydi. O'zbekiston va MDH davlatlarining migratsiya tog'risida muhokamada bo'lishi va qabul qilgan qarorlari maqolaning bir qismida ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** migratsiya, Falastin, Suriya, Isroil, YShM (Yaqin Sharq Mintaqasi), emigratsiya, qochoqlar, urush, AQSH, Turkiya, muhojirlar.

Insoniyat vujudga kelishi bilan ba'zi tabiat xafvlari tufayli ko'chmanchi va urug' bo'lib ma'lum davr mobaynida yashaganlari ma'lumdir. Keyinchalik ular o'tror bo'lib va bir joyda yashashni afzal ko'rib avval qishloqlarga keyinchalik shaharlarga asos sola boshlagani ham. Hozirgi rivojlanayotgan dunyomizda ham zamon odamlari, xususan, Yaqin Sharq Mintaqasi davlatlari insonlari misolida odamlar tabiat hodisalarini deb emas, balki ikki davlat o'rtasidagi muajorolarni (Isroil asoschisi Devid Ben-Gurion 1948-yil 14-mayida zamonaviy Isroil davlati tuzilganini e'lon qilingandan [5] so'ng bo'lib kelayotgan Isroil va Falastin o'rtasidagi muojarolar va 75 yildan davom etib kelayotgan urushlar), siyosiy va hududiy munosabatlarni (Isroil va Suriya orasidagi siyosiy munosabatlar, Arab-Isroil urushi, Suriya hududiga kiruvchi yer sharoitlari, ba'zi musulmon davlatlari va Isroil o'rtasidagi diplomatik munosabatlar yo'qligi [6], xullas, siyosiy kuchlanish va qarshiliklar ikki mamlakat orasidagi munosabatlarni murakkablashtiruvchi omillar), mamlakatlar o'rtasidagi urushlar va hududiy chegaralarning o'zgarishi va boshqa siyosiy sabablarni deb ko'chmanchi ya'ni migrant bo'lishga majbur bo'lishyapti. Hamda bunga diniy taraflama muommolar va iqtisodiy sharoitlar ham sabab bo'lmoqda. Ushbu maqola Yaqin sharq davlatlaridagi migratsiya muommolarni o'rganib chiqadi ularni har tomonlama tahlil qiladi.

Bugungi kunda migratsiya so'zi hamma uchun tushunarli bo'lgan so'zdir. Insonlar o'rtasida migratsiya hozirgi vaqtda dunyoning barcha nuqtalarida sodir bo'lmoqda. Odamlarning bir joydan ikkinchi joyga ko'chib o'tishi ikki xil omil tufayli yuzaga keladi. Birinchisi notinchliklar urushlar tufayli bo'lsa ikkinchisi bu o'zga mamlakatlarning insonlarni o'ziga jalb qilishi orqali sodir bo'ladi. Bunga misol tariqasida birinchisiga YShM davlatlarida bo'layotgan urushlar va bosqinchiliklarni ya'ni Suriyadagi terroristik guruhlarining bo'sqinlari va Isroil va Falastin o'rtasidagi

urushlarni keltirsak, ikkinchisiga AQShga noqonuniy yo'llar bilan kirayotgan migrantlarni keltirsak bo'ladi. Isroil, Suriya, Falastin, Livan davlatlaridan 2018-yildan hozirgi 2023-yilga qadar migratsiya statistikasiga qaraydigan bo'lsak. Suriya Inson huquqlari monitoringi markazi ma'lumotlariga ko'ra, Turkiya yil boshidan buyon 8 mingdan ortiq suriyalikni, jumladan "noqonuniy kirish" uchun deportatsiya qilgan. Avgust oyi boshidan buyon deportatsiya qilinganlar soni 1,2 ming kishidan oshadi. Bu odamlarning ko'pchiligi Turkiyaning Yevropa Ittifoqi bilan chegarasini kesib o'tishga uringan vaqtda qo'lga olingan. Chexiya Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, joriy yilning sakkiz oyida mamlakat hududida 3 ming 600 dan ortiq noqonuniy migrantlar qo'lga olingan bo'lib, ularning 90 foizi Suriya fuqarolaridir.[7] Isroilda 2019-yilda isroilliklarning OECD mamlakatlariga emigratsiyasi 2 foizga oshib, 10 000 nafarga yetdi. Ushbu guruhning taxminan 45 foizi AQShga, 13 foizi Kanadaga va 11 foizi Germaniyaga ko'chib o'tgan.[8] Birgina Livan davlat Falastinning noqonuniy migratsiya raqamlarini bergan statistikasini qarasaq, ular ishtirok etgan voqealar orqali yoki ular vizasiz ko'chib o'tishga harakat qilganda hibsga olinganligi sababli ro'yxatga olingan. Ushbu statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2020 yilda 6,000 dan 8,000 gacha falastinliklar hijrat qilgan va qaytib kelmagan va 2021 yilda 12,000 dan ortiq falastinliklar chiqib ketgan.[10] Livan davlati Information International ma'lumotlariga ko'ra, 2018 va 2021 yillar oralig'ida 195 433 livanlik hijrat qilgan. [11]

Xo'sh shuncha insonlarning o'z uyini tashla ketishlariga va migrant bo'lishiga asosiy sabablari nimada? Buni YShM davlatlari ya'ni yuqorida keltirilgan davlatlarda ko'radigan bo'lsak.

1.Suriya davlatida odamlarning emigrant bo'lishining bir nechta sabablari mavjud. Har bir kishi o'zining shaxsiy, oilaviy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa omillarini o'z ichiga oladi. Quyidagi sabablar Suriyadan emigrant bo'lishning muhim asoslari bo'lishi mumkin. Harbiy holatlar: Suriya 2011 yilidan boshlab davlat ichidagi siyosiy voqealarni kutilmagan mass protestlar va kelajakda qudrat tartibini o'zgartirish istagida boshladi. Ushbu voqealar keyinchalik qat'iy kasallik va harbiy holatlarga o'tdi. Bu tizimli harbiy operatsiyalar va umumiy holatlardan farqli holda, odamlar turar joylarini yoki mamlakatdan chiqib ketishni tanlaganlar. Hayot standarti va iqtisodiy nuqsonlar: Siyosiy noxushlik va harbiy voqealar iqtisodiy rivoj va hayot standartlarini aks ettirgan, sodir etayotgan vaqtincha joylashgan iqtisodiy nuqsonlar sababli ko'plab odamlar uchun muammo yaratdi. Siyosiy hamkorlikning yomonlashishi: Suriya davlatida siyosiy holatlar va siyosiy yangiliklar o'zgarishlarga uchraydi. Bu o'zgarishlar siyosiy hamkorliklarda kuchayib borishi, jamiyat tuzilishidagi o'zgarishlar, diniy va etnik guruhlar orasidagi aniq tajribalarni o'z ichiga oladi va siyosiy noxushlikni kuchaytiradi. O'zgaruvchan tanlagan turar joyi: Harbiy holatlar va iqtisodiy nuqsonlar sababli, ko'plab odamlar o'zgaruvchan joylarga ko'chib ketmoqda, chunki ular o'zgarishni va hayotlarini qutqarishni umid qilmoqda.[9]

2.Livanda Livandan emigratsiya mamlakatning konstitutsiyaviy hokimiyatni taqsimlash tizimi kabi qadimgi Mutasarifiya tizimi (1860) o'rnatilgandan beri bugungi kungacha Livan boshqaruvi davlatni zaiflashtirib, asosiy mazhablar o'rtasida hokimiyat taqsimotini tiklashda davom etmoqda. Mazhablararo noroziliklar to'xtovsiz avj olib boradigan boshqaruvning ushbu modeli davom etayotgan emigratsiya tendentsiyasini kuchaytirish uchun yetarlicha "surish omillarini" yaratdi. Livandan emigratsiyaning

surunkali to'liqlari takrorlanadigan siyosiy turg'unliklar, iqtisodiy tanazzullar va qurolli to'qnashuvlardan kelib chiqqan. Natijada, har bir tanqidiy siyosiy va iqtisodiy tanazzul bilan emigratsiya to'liqini paydo bo'ldi (va cho'qqisiga chiqdi), ularning eng oxirgisi 2019 yil oktyabr norozilik namoyishlari paytida (va undan keyin) sodir bo'lgan.[11]

3. Isroilda emigratsiya yuzaga kelishining asosiy sabablari bular chet davlatlarda odamlarning yashash xohishi va Isroil va Falastin o'rtasida yuz berayotgan urushdir.

4. Falastin davlati fuqorolari migrant bo'lishi sababi shundaki avvaldan Isroil davlatining bosimi (ayniqsa, 2023-yil Isroilning falastiga bosqini tufayli yanada odamlarni qochqin qilishga majbur etdi) va iqtisodiy tomondan rivojlanmaganidir.

Yaqin sharq mintaqasida yuzaga kelayotgan migratsiyaning boshqa davlatlarga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida aytadigan bo'lsak. Turkiya davlatini oladigan bo'lsak Suriyalik qochqinlar tufayli Turkiya qator muommolarga duch kelmoqda."Amerika ovozi" jurnalistlarining tadqiqodlariga ko'ra "Turkiya qo'shni Suriyadagi urushdan qochganlarni bag'riga oldi. Ammo qator shaharlarda bo'lib o'tgan namoyishlardan turkiyaliklar soni bir milliondan oshgan qochqinlardan norozi ekani ayon bo'ldi. Rahbarlar esa Istanbul ko'chalarida tilanchilik qilib kun kechirayotgan minglab qochqinlarni lagerga qaytarishi mumkinligini aytmoqda. Statistkaga ko'ra, Istanbulda 100 ming suriyalik bor. Ayrim hayriya tashkilotlari aslida bundaylar soni kamida ikki baravar ko'p, deydi. Shaharning har bir mahallasida tilanchilik qilayotgan, tunni bog' va masjidlarda o'tkazayotgan suriyaliklarni ko'rish mumkin. Jamoatchilik bundan norozi ekanini aytar ekan, shahar hokimi Avni Murlu suriyaliklarni qochqinlar lageriga majburan jo'natishni va'da qildi. Turkiya rahbariyati qochqinlar uchun lagerlar qurish va ularni ta'minlash maqsadida milliardlab dollar sarfladi. Kuzatuvchilarga ko'ra, lagerlar Suriyadagi mojaro uzoqqa cho'zilmaydi, degan umidda barpo etilgan edi. Ammo qo'shni mamlakatdagi urush davom etar ekan, lagerlardagi vaziyat ham beqarorlashmoqda, aholi orasida ham norozilik oshib bormoqda. Tahlilchi Ulgen fikricha, rasmiy Anqara jiddiy muammoga yuz tutmoqda va yordamga muhtoj. Anqara Yevropadan ko'mak so'ramoqda. Ammo yordam qo'lini cho'zganlar kam. Aholi esa qanchagacha qochqinlarni boqamiz, deya norozi." degan natijalarni olgan.

5. Kelgusi o'n yilliklarda iqlim o'zgarishi oqibatlarini, shuningdek, qurg'oqchilik, dengiz sathining ko'tarilishi, hosil yetishmasligi natijasida oziq-ovqat xavfsizligi yoki cho'llanish kabi odamlarni o'z hududlari yoki mamlakatlarini tark etishga olib keladigan mavjud mojarolarga asoslangan sabablardir. Oxirgi besh yil ichida qochqinlarning Suriyaga qaytishi uchun xalqaro tashabbus asosiy mezbun bo'lgan davlatlar orasida juda kuchaydi, bunga esa qisman Asad rejimining 2018-yilda harbiy xizmatga chaqirilmaslik uchun mamlakatni tark etgan suriyalik erkaklarga amnistiya taklif qilish haqidagi farmoni sabab bo'ldi, ammo bu emas. muxolifat kuchlariga qo'shilganlarga. Haqiqatda Suriyaga qaytish qimordir. Xalqaro Amnistiya tashkiloti suriyalik razvedka xodimlarining erkaklar, ayollar va bolalarni hibsga olish, qiynoqlar, jinsiy zo'ravonlik va majburan g'oyib bo'lishga majburlagan o'nlab holatlarini hujjatlashtirgan. 2022 yil oxiriga kelib, Suriyaga atigi 350 000 suriyalik qaytdi, ammo haqiqiy raqamlar bundan ham yuqori bo'lishi mumkin, chunki qaytishlar norasmiy yo'llar orqali ham sodir bo'ladi. [4]



Falastinlik qochqinlarni qo'llab-quvvatlash Yevropa Ittifoqi falastinlik qochqinlarga yordam ko'rsatuvchi eng yirik tashkilotlardan biri hisoblanadi. Evropa Ittifoqining mablag'lari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yaqin Sharqdagi Falastinlik Qochqinlarga yordam va Ishlar Agentligi (UNRWA) sog'liqni saqlash, ta'lim va ijtimoiy xizmatlarni, shu jumladan qochqinlar lagerlarida faol bo'lgan o'qituvchilar, shifokorlar va ijtimoiy xizmatchilarning ish haqini ta'minlashi uchun foydalaniladi. 2021-2023-yillar uchun NDICI doirasida UNRWA dasturi byudjetiga YIning hisyasi 281 million yevroni tashkil etdi. Suriya inqiroziga javoban Yevropa Ittifoqining Mintaqaviy ishonch jamg'armasi orqali qo'shimcha badallar taqdim etiladi, Yevropa Ittifoqining gumanitar yordami, hamkorlikni rivojlantirish vositasi doirasida oziq-ovqat xavfsizligi dasturi va Barqarorlik va tinchlikka hissa qo'shuvchi vosita. Yevropa Komissiyasi 2023-yil boshida UNRWAgaga yillik 82 million yevro miqdoridagi hissasini Yevropa Ittifoqi va UNRWA Qo'shma deklaratsiyasi qoidalariga muvofiq ajratdi. Agentlikka 10 million yevro miqdoridagi qo'shimcha hissa qo'shdi.[13]

Ma'lumki, Isroil va Falastin o'rtasida kechayotgan uzoq vaqtlik kelishmovchiliklarning 2023-yilda avj olishi ushbu davlatlarda yashovchi tinch aholi o'rtasida emigratsiyaning avj olishiga sabab bo'ldi. Isroil va Falastin o'rtasidagi ushbu urushga O'zbekiston va boshqa davlatlar qanday pozitsiya bildirgan? Xususan, O'zbekiston tashqi ishlar vazirligi Falastin isroil mojarosi hududida tinch aholi rosta ko'plab qurbon berilishiga olib kelgan va butun yaqin sharqdagi vaziyatni sezilarli darajada murakkablashtirgan holat keskinlashganidan jiddiy xavotir bildirdigan va tashqi ishlar vazirligi kurashayotgan tomonlardan qurolligga qarama-qarshilikni test fursatlarda tugatish va inqirozni siyosiy hamda diplomatik vositalar orqali hal qilish uchun barcha choralarni ko'rishga chaqirgan<sup>1</sup>.

NATOning esa Yevropadagi yuqori martabali qo'mondoni Rossiya va Suriya migratsiyadan ataylab Yevropaga nisbatan tajovuzkor strategiya sifatida foydalanmoqda, dedi. AQSh generali Filipp Bridlav qit'ani beqarorlashtirish va izdan chiqarish uchun migratsiyani "qurollashtirayotganini" aytdi. Shuningdek, u muhojirlar oqimida jinoyatchilar, ekstremistlar va jangchilar yashiringan, deb taxmin qildi. "Makedoniya bir tomchidan ko'proq o'tishga ruxsat berishni to'xtatganidan keyin Gretsiyada migrantlar to'planishda davom etmoqda. Chorshanba kuni u 200 ga yaqin suriyalik va iroqlik qochqinlarga o'tishga ruxsat berdi, minglab qochqinlar hamon chegaraning Gretsiya tomonida qolib ketishdi. Yangi raqamlar shuni ko'rsatadiki, o'tgan yili Yevropaga kelgan bir million dengiz muhojirlari yil oxirigacha mos kelishi mumkin"<sup>2</sup>-deya o'z fikrlarini bildirgan[bbc]

Yevropa ittifoqi insonlarga ko'rsatgan va ko'rsatayotgan yordam va migratsiyaga qarshi choralari borasida 2015-yilda Yevropaning siyosiy inqirozi natijasida boshpana izlovchilarning ko'pchiligi Suriyadan kelib chiqqanligi sababli, migratsiya Yevropaning MENA mamlakatlari bilan munosabatlarida tobora muhim rol o'ynadi. Yevropa 2016-yilda Turkiya bilan muvaffaqiyatli

<sup>1</sup> <https://youtu.be/WkJd1ka58eg?si=F3j1ngOBvbAGvwSP> "Qalapir.uz" muhbiri sharxidan

<sup>2</sup> <https://www.bbc.com/news/world-europe-35706238> Migrant crisis: Russia and Syria 'weaponising' migration 02.03.2016

migratsiya kelishuvi sifatida qabul qilgan, Turkiya Gretsiyaga kelgan suriyalik qochqinlarni 6 milliard yevro va boshqa diplomatik imtiyozlar evaziga qabul qilishi ortidan Italiya 2017-yilda kelishuvga rozi bo'ldi (Yevropa Ittifoqi tomonidan tasdiqlangan) Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qo'llab-quvvatlangan Liviya Milliy kelishuv hukumati (GNA) bilan. Yevropa Ittifoqi Liviya qirg'oq qo'riqlash xizmatiga Liviyadan jo'nab ketayotgan migratsiya qayiqlarini qo'lga olishda yordam berishga va mamlakatda qamoqxonalarni (mahalliy qabul qilish markazlari deb ataladi) tashkil etishga moliyaviy yordam berishga rozi bo'ldi. Buning evaziga GNA Yevropaga tartibsiz migratsiyaning oldini oladi va o'z mamlakatlariga qaytishga tayyor bo'lgan muhojirlar va boshpana izlovchilarni vataniga qaytaradi. Yevropa Ittifoqi-Turkiya kelishuvidan ham bema'niroq bo'lgan Liviya bilan tuzilgan kelishuv inson huquqlari buzilishiga e'tibor bermagan va u amalga oshirilganidan ko'p o'tmay, jurnalistlar migrantlarning qul kimoshdi savdolarida sotilayotgani tasvirlarini oshkor qilgan. Yevropa Ittifoqining moliyaviy va moddiy yordami Liviya fuqarolariga ham ta'sir qiladi, chunki GNAGA aloqador qurolli guruhlar qiynoqlar, o'g'irlashlar va suddan tashqari qatlarni amalga oshirgan. Yevropa Ittifoqining moliyalashtirishi dastlab markaziy O'rta er dengizi yo'nalishi bo'yicha migrantlar kelishining kamayishi bilan bog'liq bo'lsa-da, kelganlar soni 2020-yilda 35 mingdan 2022-yilda 105 mingga yetdi, bu Yevropaning Liviyada muhojirlarni tuzoqqa tushirish siyosati nafaqat insoniyatga, balki insoniyatga ham qimmatga tushishini ko'rsatadi. Lekin u ham samarasiz.[4]

Migratsiya tufayli odamlarning hayoti har xil kechishi mumkin ochlik yoki to'qlikda (gumanitar yordamlar tufayli) kechishi mumkin.[2] Xatto bazida o'lim bilan tugashi mumkindir. Odamlar hayotiga ta'sirini olib qaraydigan bo'lsak, birinchidan, migrant sifatida sof erkinlik bo'lmaydi ularda. Agarda chet davlatda pul topmoqchi bo'lib ishlashni xohlasa ularda ko'plab imkoniyatlar eshiklari yopiq bo'ladi, huquqlari himoyalangan bo'ladi, eng asosiysi bo'lgan ta'lim olishdan qolib ketadi. Ayniqsa, qochoq sifatida bo'lgan insonlar. Ularning hayotini rasm sifatida qarasa ushbu rasm ularda faqat ikki oq va qora rangda bo'ladi. Migrantlarni hayoti qisqasini aytganda rangsiz bo'ladi.

Shunday ekan hozirda YShM davlatlari emigratsiya muommasiga qator chora tadbirlar ko'rmoqda. Birinchidan, garchi mojaroning oqibatlari aks-sado berishda davom etsa-da, urush 2019-yilda amalga yakunlandi va prezident Bashar al-Assad rejimi mamlakatning katta qismi ustidan nazoratni qayta tiklab, shimoli-g'arbiy va shimoli-sharqdagi kichikroq hududlarni ikki muxolif guruh – Haylar ta'siri ostida qoldirdi. "Tahrir ash-Shom (HTS) va Suriya demokratik kuchlari (SDF) da. [5] Albatta, bu ham suriyalik insonlarni muhojir sifatida o'zga mamlakatda bo'lishini kamaytirdi. Ikkinchidan, notinchliklar sodir bo'lishda davom etayotgan Suriyada emigrantlarning ko'payishi oldini olish uchun eng kuchli o'zgarish agenti bu ta'lim bo'lishi mumkin. Hozirda qariyb 5 million suriyalik migrantlar, ularning yarmidan ko'pi bolalardir va ular uchun eng katta ziddiyat bu maktabga kirish imkoniyatidir. [3]

Yuqorida aytib o'tilganlardan shuni xulosa qilish kerakki, har bir inson doimo o'z ona yurtida istiqomat qilishni hohlaydi. Shunday ekan YShM davlatlarida qochqin bo'lib o'zga mamlakatlarda hayot kechirayotganlar ham hohlasada bunga Suriyada sodir bo'layotgan diniy ekstremistik guruhlarining hukumat odamlari va oddiy

insonlarga tajovuzkorliklari, Isroil va Falastinda qariyib 75 yildan beri davom etib kelayotgan va yaqin yillarda avj olgan urushlar, Livan davlatida qo'shni davlatlar ta'siri va o'zining iqtisodiy muommolari ular uchun yo'l bermaydi. Bunga yuqorida ko'rsatilgan statistik ma'lumotlar ham yaqqol dalil bo'la oladi, Birgina YShM davlatlarida quyidagi jarayonda bo'lgan vaziyatlarni deb faqat shu davlat aholilari emas balki, Turkiya, Iordaniya Eron Yevropa Ittifoqi davlatlariga insonlari ushbu ta'sir ostida bo'lishyapti. Ya'ni Turkiyada Suriyalik qochqinlarni deb aholining nozorilik chiqishlari ba'zi odamlar jabrlanishlari ustiga ustak YI aratayotgan gumanitar yordamlari va mablag'lari ko'p hollarda besamar ketishlarini ayta olamiz. Shuni qo'shimchasiga xulosa qilsak, dunyo mamlakatlari YShM davlatlariga bildirayotgan munosabatlari ham qaysidir ma'noda to'g'ri bo'ladi. Negaki, ular e'tibordan holi emasligini eslatib turadi va ushbu davlatlarni sergaklikka ushlab tura oladi. YShM da migratsiya muommosiga yechim bo'ladigan yo'l ta'limni rivojlantirish va birgalikda ko'plab mamlakatlar yordam qo'lini uzmasdan berishi hamda mahalliy ya'ni YShm odamlari birdam bir yoqadan bosh ko'tarishi sifatida qaralish juda o'rinlidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1 [1].Meena, K. (2013). Border theory and Globalization: Perspectives from the South. *International Studies*, 50(1-2), 1-15. [electron resurs] Kirish tartibi: <https://doi.org/10.1177/0020881716654381> .(murojaat qilingan sana: 10.01.2024)
2. [2]. **Iqtisodiyot fanlari doktori S.V. Ryazansev boshchiligidagi jamoaviy monografiya (2020), "Qaytish migratsiyasi: xalqaro yondashuvlar va Markaziy Osiyoning mintaqaviy o'ziga xos xususiyatlari" O'quv qo'llanmasi Xalqaro Migratsiya Tashkiloti (XMgT) – BMT migratsiya Agentligi, Almati. 2020.** . [electron resurs] Kirish tartibi: <https://publications.iom.int/system/files/pdf/return-migration-in-ca-uz.pdf> .(murojaat qilingan sana: 10.01.2024)
- 3.[3] Jahon migratsiyasi to'g'risida Ma'ruza, XMgT, Jeneva (World migration report 2018. Chapter 2 (2-bob). IOM: Geneva.) 2017. 62-b. . [electron resurs] Kirish tartibi: [www.iom.int/sites/default/files/country/docs/china/r5\\_world\\_migration\\_report\\_2018\\_en.pdf](http://www.iom.int/sites/default/files/country/docs/china/r5_world_migration_report_2018_en.pdf) .(murojaat qilingan sana: 10.01.2024)
4. [4].Kelsi Norman. Maqola// "Arab dunyosidagi migratsiya va ko'chish ko'proq adolatli javobni talab qiladi" Karnegi. 03 may, 2023 yil. [electron resurs] Kirish tartibi <https://carnegieendowment.org/2023/05/03/migration-and-displacement-in-arab-world-demands-more-equitable-response-pub-89520> . (murojaat qilingan sana: 10.01.2024)
- 5.[5]. Isroil va falastin mojarosi nima va qanday boshlangan- hafta dayjesti. Kirish tartibi: <https://www.ozodlik.org/a/isroil-falastin-mojarosi-nima-va-u-qanday-boshlangan-/32636162.html> . (murojaat qilingan sana: 10.01.2024)
6. [6]. Yaqin Sharqdagi asosiy o'yinchilar. Saudiya Arabistoni va Eronning mintaqadagi yetakchilik uchun kurashi. Kirish tartibi: <https://kun.uz/uz/17874533> . (murojaat qilingan sana: 10.01.2024)



7. [7]. Suriyalik 20 mingdan ortiq qochqin noqonuniy ravishda Turkiya orqali Gretsiya va Yevropaga harakatlanmoqda. Kirish tartibi: <https://daryo.uz/2022/09/17/suriyalik-20-mingdan-ortiq-qochqin-noqonuniy-ravishda-turkiya-orqali-gretsiya-va-yevropaga-harakatlanmoqda%2F>. ( murojaat qilingan sana: 10.01.2024)

8.[8]. Israel.Kirish tartibi: <https://www.oecd-ilibrary.org/sites/726c1dce-en/index.html?itemId=/content/component/726c1dce-en> . ( murojaat qilingan sana: 10.01.2024)

9.[9] Ten cases of child polio confirmed in Syria by the WHO. Kirish tartibi: [https://www.bbc.co.uk/search?q=the+reasons+of+emigration+in+syria&d=news\\_gnl&seqId=8fa223d0-acb5-11ee-b89c-27e83a5f9dba&page=2](https://www.bbc.co.uk/search?q=the+reasons+of+emigration+in+syria&d=news_gnl&seqId=8fa223d0-acb5-11ee-b89c-27e83a5f9dba&page=2). ( murojaat qilingan sana: 10.01.2024)

10.[10]. Palestinian Emigration (II). Kirish tartibi: <https://www.palquest.org/en/highlight/33689/palestinian-emigration-ii>. ( murojaat qilingan sana: 10.01.2024)

11.[11]. Miguel M. The Lebanese Trend of Emigration: A New Peak Since 2019? School of art and science. 2022. [electron resurs] Kirish tartibi: <https://soas.lau.edu.lb/news/2022/01/the-lebanese-trend-of-emigration-a-new-peak-since-2019.php>. ( murojaat qilingan sana: 10.01.2024)

12. [12]. Turkiyada suriyalik qochqinlarga munosabat salbiy. Kirish tartibi: <https://www.amerikaovozi.com/a/turkey-syria-refugees/1965956.html> . ( murojaat qilingan sana: 10.01.2024)

13. [13]. European Neighbourhood Policy and Enlargement Negotiations (DG NEAR).Kirish tartibi:[https://neighbourhood-enlargement.ec.europa.eu/european-neighbourhood-policy/countries-region/palestine\\_en](https://neighbourhood-enlargement.ec.europa.eu/european-neighbourhood-policy/countries-region/palestine_en) .( murojaat qilingan sana: 10.01.2024)